

**TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI**

***Hamdamova Matluba G'aniyevna***

***Akbarova Gulnoza Nurmuhhammadovna***

***Turg'unova Muhayyo Turobjonovna***

***Dang'ara 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchilari***

***Annotatsiya:*** mazkur maqolada PVA yelimi va makkajo 'xori kraxmalidan sovuq chinni tayyorlash texnologiyasi, sovuq chinnidan ayollar taqinchog'i bo 'lmish zirak tayyorlash texnologiyasi hamda sovuq chinnidan qanday buyumlar tyyorlash mumkinligi to 'g 'risida fikr yuritiladi.

***Kalit so'zlar:*** polimer loyi, zargarlik buyumlari, xotin-qizlar, zirak, atirgul, hunarmand, sovuq chinni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 19-martda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 12-sonli bayoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-martdag'i "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyatga joriy etish samaradorligini oshirish to 'g 'risida"gi qaroriga muvofiq keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotir. Ushbu qarorga asosan davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan. Ayniqsa, 5-tashabbusda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari nazarda tutilgan [1].

So'nggi yillarda zargarlik san'ati an'analarini qayta tiklash, mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek, aholining sifatli zargarlik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2]. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda xotin-qizlar to'y marosimlariga yoki boshqa tadbirlarga tashrif buyurmoqchi bo'lsa, zargarlik

buyumlariga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, tadbirga muvofiq ravishda libos, zargarlik buyumlari tanlanadi.

Ta'kidlash joizki, zargarlik buyumini yasash ko‘p vaqt talab qilmaydi. Masalan, polimer loyidan yasalgan zargarlik buyumlari bejirimligi va o‘zining nafisligi bilan e’tibordan chetda qolmaydi. Ayniqsa, chet ellik mehmonlar uchun qo‘lda tayyorlangan (hand made) buyumlar juda qadrli hisoblanadi.

Polimer loyi hunarmandlikda keng ishlataladi. Polimer loyi plastik mahsulot hisoblanadi. Polimer loyini germaniyalik olima Fifi Rexbinder ixtiro qilgan. Polimer loyidan yodgorlik va zargarlik buyumlari, bayram sovg‘alari, qo‘g‘irchoq, haykallar, kviling va gullar yasash mumkin [3]. Polimer loyidan tayyorlangan bunday buyumlarni uzoq muddatgacha saqlab qolish mumkin. Ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan xotin-qizlar uchun bu juda qulay hisoblanadi. Ayollar uchun polimer loyidan tayyorlangan zargarlik buyumi hisoblanadigan zirak (sirg‘a) yasash mumkin. Bu zirakni sovg‘a sifatida ham ishlatsa bo‘ladi va daromad uchun ham yaxshi mahsulot sanaladi. Polimer loyini uy sharoitida ham tayyorlash imkoniyati mavjud. Polimer loyi (sovuv chinni)ni uy sharoitida turli xil usulda tayyorlash mumkin, buyum tayyorlovchining xohishiga va tayyorlayotgan mahsulotning ko‘rinishiga qarab tanlanadi. Quyida sovuq chinni tayyorlash va undan ayollar uchun zargarlik buyumi bo‘lmish zirak (sirg‘a) yasash texnologiyasini ko‘rib chiqamiz. Sovuq chinni tayyorlash texnologiyasi Kerakli mahsulotlar: PVA yelimi, makkajo‘xori kraxmali, rang beruvchi pigment, mineral yog‘. Ishni bajarish tartibi:

1. Idishimizga 2 choy qoshiq makkajo‘xori kraxmali va 1 choy qoshiq PVA yelimini solib, yog‘och qoshiq bilan yaxshilab aralashtiriladi.
2. Quyuq massaga kelgach, qo‘limizga mineral yog‘ surib sovuq chinni bir xil massaga kelgancha aralashtiramiz.
3. Tayyor bo‘lganligini bilish uchun u cho‘ziluvchan massaga aylanadi va polietilen pylonka bilan o‘rab ikki soat tindiriladi.
4. Tayyor bo‘lgach, rang beruvchi pigment qo‘shiladi.
5. Tayyor bo‘lgan massamiz 150 gramm atrofida bo‘ladi. Tayyor massadan bemalol foydalanish mumkin. Ayollar uchun zargarlik buyumi – zirak

yasash texnologiyasini ko‘rib chiqamiz). Ayollar uchun zargarlik buyumi zirak yasash texnologiyasi Kerakli mahsulotlar: oldindan tayyorlangan sovuq chinni (polimer loyi), maxsus zirak ilgich, pech, suv kerak bo‘ladi. Ishni bajarish tartibi:

1. Atirgul yasashimiz uchun polimer loyini 6 dona doira shaklida tayyorlab olinadi.
2. Doira shaklidagi bo‘laklar bir tekis qilib yoyiladi va atirgul yaproqlari hosil qilinadi. Shaklning bir uchi barmoqlar yordamida biriktiriladi.
3. Barcha bo‘laklar bir-biriga biriktirilib atirgul tayyorlanadi.
4. Hosil bo‘lgan atirgulga ilgich uchun maxsus metall o‘rnatiladi.
5. Atirgulni pechda 130 darajada, 30 daqiqada pishirib olinadi.
6. Mustahkamligini oshirish va yanada nafis ko‘rinishi uchun pishirib bo‘lgach, muzday suvgaga solinadi.
7. Tayyor bo‘lgan atirgulga maxsus zirak ilgich o‘rnatiladi.
8. Zirak atirgulning yuza qismiga zar yoki lak bilan bezak berish mumkin.

Tajribali hunarmand ayollarning fikriga ko‘ra, loydan bir-biriga mutlaqo o‘xshash ikkita atirgul yasash mumkin emas. Qo‘lda ishlangan kvilinglar har doim o‘ziga xos va noyob bo‘ladi. Binobarin, hunarmand ayollar qo‘li bilan yaratilgan bunday hunarmandlik amaliy san’atining haqiqiy asarlari bo‘lib, juda qadrlanadi. Bugungi kunda hunarmandlar o‘z qo‘llari bilan qo‘l san’atlarini yaratish uchun tobora ko‘proq polimer loyidan foydalanmoqda [4]. Xulosa qilib aytganda polimer loyidan nafaqat zargarlik buyumlari, turli xil aksesuar (qo‘sishimcha jihoz)lar, sovg‘a uchun har xil dekorativ (bezakli buyum)lar ham tayyorlash mumkin. Sovuq chinnidan tayyorlangan mahsulotlar juda nafis, mustahkam bo‘ladi. Polimer loyidan foydalanish turli xil buyumlar tayyorlash ijodkorlikni talab etadi. Ijodkorona yondoshib tayyorlangan buyumlar esa nazokatli xotin-qizlarimizning nafis zargarlik buyumlari qatoridan joy olishga ulgurdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 19-martda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 12-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrdagi “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va mahalliy zargarlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
3. Аскаров М.А., Жалилов А. Т., Синтез ионогенных полимеров, Тошкент., 1978 г.
4. K.R.Xo‘jaqulov. Polimerlarni qayta ishslash texnologiyasi.// Buxoro. 2018.